O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

# “YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

# MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI**

# “YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**

# MATERIALLARI

**(2025 yil 24-25 oktabr)**

**SAMARQAND 2025**

**Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li -** *“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet dosenti, PhD.*

## YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM MILLIY BOZORIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH

**Annotasiya** ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida turizm milliy bozorini innovasion faollikni oshirish imkoniyatini yaratuvchi muhim xususiyatlar asoslanilgan hamda turizm milliy bozorini innovasion faollikni oshirish bo‘yicha muallif qarashlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, turizm milliy bozori, innovasion faollik, turizm milliy bozorida innovasion faollik, turizm infratuzilmasi.

Respublikamizda iqtisodiyoni jadal rivojlantirishning muhim asoslaridan biri yashil iqtisodiyot sharoitida strategik sohalardan biri hisoblangan turizm sohasida innovasion faollikni oshirish muhim hisoblanadi. Bizga ma’lumki, turizm dunyoning eng yirik va eng dinamik soha sifatida shakllanib, iqtisodiy o‘sish va davlatlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvlar ekomuhitni o‘rganishni rag‘batlantirmoqda. Yashil iqtisodiyotga intilishni kuchaytiruvchi ekoturizmni rivojlantirish va uning barqarorligini ta’minlashda infratuzilmaning rivojlanishi va saqlanishi uzoq vaqtdan beri muhim omil sifatida tan olinadi. Bu esa sayyohlik maskanlarining qulay, jozibador va ochiq bo‘lib qolishini ta’minlaydi. Yashil iqtisodiyotga, ekomuhitga qiziquvchi global sayohatlar tobora kengayib borayotgan bir vaqtda, infratuzilmaning turizmga ta’sirini chuqurroq anglash va baholash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm iqtisodiyotini jadal rivojlantirish turizm milliy bozorida talab va taklifga mos innovasion faollikni oshirish alohida ustuvorlikni talab etadi. Shunday ekan, yashil iqtisodiyot sharoitida turizm milliy bozorini innovasion rivojlantirishning muhim xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, respublikamizda strategik soha hisoblangan turizm tarmog‘ini yashil iqtisodiyot talablariga mos innovasion ehtiyojini o‘rganish, holatni tahlil qilish va zarur ilmiy xulosalar chiqarish;

Ikkinchidan, turizm milliy bozori ehtiyojidan kelib chiqib, yangi innovasion texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlarini shakllantirish;

Uchinchidan, turizm milliy bozorida yashil iqtisodiyotni shakllantirish imkoniyatini yaratuvchi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lish;

To‘rtinchidan, respublikamizda turizm milliy bozorini kelgusida jadal taraqqiyotini ta’minlovchi parametrlarini belgilovchi ilmiy asoslangan innovasion me’yorlar va normativlarni shakllantirish va boshqalardan iborat.

Respublikamizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan turizm milliy bozorida infratuzilma, transport tizimlari, turar joy ob’ektlari, jamoat xizmatlari hamda ekotabiat bilan bog‘liq inshootlar muhim hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, samarali va zamonaviy transport tarmoqlari - aeroportlar, avtomobil yo‘llari va jamoat transporti - sayyohlik maskanlarini dunyoning boshqa qismlari bilan bog‘lashda va shu asosda ekoturistlarni jalb etishda asosiy rol o‘ynaydi. Oson va

ishonchli transport tizimi nafaqat ko‘proq sayyohlarni jalb qiladi, balki ularning umumiy sayohat tajribasini ham yaxshilaydi.

Bundan tashqari, sifatli turar joylar va yaxshi saqlangan jamoat inshootlarining mavjudligi sayyohlarning dam olish davomidagi qoniqishini sezilarli darajada oshiradi. Yetarli infratuzilma ekosayyohlarga mahalliy madaniyat va diqqatga sazovor joylardan katta xatarsiz bahramand bo‘lish imkonini beradi, bu esa ekoyayyohlarda tabiat mo‘jizalarini tomosha qilishda ijobiy taassurotlar va takroriy tashriflarni rag‘batlantiradi.

So‘nggi yillarda barqaror ekoturizm sezilarli darajada rivojlandi va ekologik jihatdan mas'uliyatli amaliyotlarga o‘tishga turtki berdi. Natijada, infratuzilmaning turizmga ta’siri endi faqatgina qulaylik va shinamlik bilan cheklanib qolmayapti. Yashil infratuzilma, qayta tiklanadigan ekologik toza energiya manbalari va mas’uliyatli chiqindilarni boshqarish kabi tashabbuslar atrof-muhitga e’tiborli sayyohlarni jalb qilish va turistik maskanlarning tabiiy hamda madaniy merosini saqlab qolish uchun muhim omillarga aylandi.

Yashil iqtisodiyot ehtiyojlariga mos turizmni shakllantirish infratuzilma va turizm o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni tushunish siyosat yurituvchilar, hukumatlar va turizm sohasidagi manfaatdor tomonlar uchun nihoyatda muhimdir. Ekosayyohlarning istaklari va xatti-harakatlarini, shuningdek, yaxshi rejalashtirilgan infratuzilmaning ahamiyatini tahlil qilish orqali qaror qabul qiluvchilar turizm o‘sishini rag‘batlantirish, bandlik imkoniyatlarini yaratish va manzilli hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston bugungi kunda turizm bozorini yashil iqtisodiyot sharoitida innovasion rivojlantirish muhim yo’nalish sifatida yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishni zarur qiladi. Turizm milliy bozorida yashil iqtisodiyot sharoitiga mos innovasion faollikni oshirishda quyidagilar muhim ekanligi asoslanildi. Birinchidan, eng avvalo turizm milliy bozorini talab va taklifga asosan yashil iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish. Ikkinchidan, yashil iqtisodiyotga mos xalqaro tajribadan kelib chiqib, turizm milliy bozorini eng muhim jihatlari shuningdek, yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Uchinchidan, yashil iqtisodiyotga qiziquvchi sayyohlarni jalb etishda sun’iy intelekt imkoniyatlaridan keng foydalanish. To‘rtinchidan yashil iqtisodiyotni muhim jihatlarini o‘rganishni targ‘ib etuvchi ekologik turizmni keng imkoniyatlaridan foydalanish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Lovelock, C.H. (1983), “Classifying servicyes to gain strategic marketing insighs’’, Journal of Marketing, Vol. 47, pp. 9-20.

2. Silvestro, R. (1999) "Positioning servicyes along thye volume-variyety diagonal: Thye contingenciyes of servicye design, control and improvement", International Journal of Operations & Production Management, Vol. 19, No. 4, pp. 399 – 421.

3. Cook, D. P., Goh, C.-H., Chung, C.H., (1999), “Servicye typologiyes: a state of thye art survey”, Production and Operations Management, Vol. 8, No. 3, pp. 318–338.